

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

VALIYEVA SHAXNOZA ISLOMOVNA

**SAMARQAND VILOYATI JOY NOMLARINING TABIIY GEOGRAFIK
XUSUSIYATLARI**

11.00.01-Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Valiyeva Shaxnoza Islomovna

Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari 3

Валиева Шахноза Исломовна

Природно-географические особенности топонимов Самаркандской
области 19

Valieva Shakhnoza Islomovna

Natural and geographical features of toponyms of the Samarkand region 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

VALIYEVA SHAXNOZA ISLOMOVNA

**SAMARQAND VILOYATI JOY NOMLARINING TABIIY GEOGRAFIK
XUSUSIYATLARI**

11.00.01 - Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/Gr214 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abbasov Subxon Burxonovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdimambetov Izimbet Raxmetovich
geografiya fanlari doktori

Otaqulov Poziljon Sobirovich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 25 mart 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti, Bosh bino 105-xona, Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (+99866) 239-11-40; Ye-mail: ik-geografiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 24 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "10" mart kuni tarqatildi
(2023-yil "2" 4 mart da raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Q.Komilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
g.f.f.d. (PhD)

A.Abdulqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda geografik joy nomlari, ularning tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Geografik nomlar bo'yicha ekspertlar guruhi (UNGEGN) geografik nomlarda ijtimoiy-madaniy va landshaft elementlari aks etishini inobatga olib, 2021-2029 yillarga mo'ljallangan strategik rejasi hamda ish dasturini ishlab chiqqan. Unda "davlatlarning milliy geografik nomlarini standartlashtirish masalalari va ularning ustuvor harakatlarini aniqlash"¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar, joy nomlarining tabiiy geografik jihatlarini tahlil qilish, geografik obyektlarni nomlash, joyning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Dunyo bo'yicha joy nomlarini o'ziga xos jihatlariga, jumladan, ularni boy tarixga ega ekanligi, turli o'lkalarning tabiiy geografik o'rnini, tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot olami, tabiiy resurslari, tog' va tekisliklari, suv resurslari to'g'risida ma'lumotlarni beruvchi muhim manba sifatida e'tirof etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, joy nomlarning tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash va guruhlashtirish, ularni muhofaza qilish maqsadida milliy toponimik kataloglarini yaratish va kompleks tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda geografik joy nomlarini shakllanishiga tabiiy geografik xususiyatlar asos bo'lgan joy nomlarini ilmiy tadqiq qilish, ularni to'g'ri yozilishi va talaffuzini qat'iylashtirish va muhofaza qilish ishlari bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida «geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan². Bu borada, xususan, Samarqand viloyati joy nomlarini geografik jihatdan kompleks tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019 yil 12 dekabrdagi 984-son «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida», 2020 yil 29-yanvardagi 40-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari hamda mazkur sohaga taaluqli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

¹ UNGEGN- United Nations Group of Experts on Geographical Names
https://unstats.un.org/unsd/ungegn/documents/UNGEGN_Strategic_Plan_2021_V4.pdf

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” yo‘nalishining D. “Aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmalarini shakllantirishni ilmiy jihatdan o‘rganish va yangi bilimlarni egallash” bandi hamda VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Geografik joy nomlarini o‘rganilishining nazariy-uslubiy asoslarini xorijiy olimlardan M.Vasmer, G.B.Adams, A.Rayburn, K.Rimut, G.Dragu, M.Mulon, A.Doza va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan geografik joy nomlarini tadqiq etishda V.P.Semenov Tyan-Shanskiy, V.A.Nikonov, Ye.M.Pospelov, A.V.Superanskaya, E.M.Murzayev, V.A.Juchkevich, V.N.Toporov, N.V.Podolskaya, A.I.Popova, Yu.A.Karpenko, B.A.Serebrennikova, A.K.Matveyev, R.A.Ageyeva, Ye.M.Chernyaxovskaya, M.N. Morozova va boshqalarning hissalarini beqiyos.

O‘zbekistonda toponimika sohasining turli yo‘nalishlarida H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, P.G‘ulomov, T.Nafasov, N.M.Uluqov, Z.Do‘simov, Q.M.Hakimov, A.Nizomov, Yu.I.Ahmadaliyev, M.T. Mirakmalov, B.T. Eshboyev, P.S.Otaqulov, X.M. Bayqabilov singari olimlar o‘zining tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, Samarqand viloyati joy nomlarini o‘rganilishi bo‘yicha B.O‘rinboyev, T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turopov, S.Bo‘riyev, Sh.Temirovlar tadqiqot olib borgan.

Ushbu tadqiqot ishlarda joy nomlarini standartlashtirish, guruhlashtirish hamda toponimlarni nazariy masalalari kompleks o‘rganilgan va xulosalar chiqarilgan. Biroq, geografik nomlarning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish va ularni muhofaza qilish maqsadida ularning milliy elektron bazasi yaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasidagi ITD-7-10 “Samarqand viloyatining o‘lkashunoslik atlasini tuzish” (2012-2014 yy.) amaliy tadqiqot loyihasi, IOT-2013-5-08 “Samarqand viloyatining ekologik, atrof-muhit muhofazasi, ichimlik suv sifati, maishiy xo‘jalik chiqindilari kartalarini tuzish” (2013-2014 yy.) innovasion loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatidagi joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash va ularni hududiy tarqalish hamda nomlanish qonuniyatlarini asoslash, toponimlarni guruhlashtirish, standartlashtirish va kataloglashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand viloyati toponimlarini to‘plash hamda ularning tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash;

to‘plangan geografik joy nomlarini xususiyatlari bo‘yicha guruhlashtirish,

tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

viloyatda mavjud tabiiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan joy nomlarini nomlanish qonuniyatlarini tahlil qilish;

ArcGIS 9.10 dasturlari yordamida Samarqand viloyatining 1:800000 masshtabli gidronim kartasi yaratish;

Samarqand viloyatining tabiiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan (oronim, gidronim, fitotoponim va zootoponim) toponimlarini muhofaza qilish, saqlash va kelgusi avlodga yetkazish uchun ilmiy asoslangan (GNIS) geografik nomlarning axborot tizimidan foydalanib elektron toponimik katalog yaratish.

Tadqiqotning obyekti Samarqand viloyati joy nomlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Samarqand viloyati geografik joy nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash, ularni guruhlashtirish, nomlanish qonuniyatlarini asoslash masalalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida geografik taqqoslash, tarixiy qiyoslash, kartografik, dala-ekspedisiya, etimologik tahlil, statistik, anketa–so‘rov, guruhlashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari asosida toponimlar kompleks guruhlashtirilgan;

geografik obyekt nomlarining geografik joylashuvi va etimologiyasi bo‘yicha veb texnologiyalarga asoslangan Samarqand viloyatining toponimik katalogi tizimi ishlab chiqilgan;

ArcGIS 9.10 dasturlari yordamida Samarqand viloyatining 1:800000 masshtabli gidronim kartasi yaratilgan;

Samarqand viloyati joy nomlarini muhofaza qilish, standartlashtirish maqsadida geografik joy nomlarining elektron veb saytini yaratish algoritmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyat joy nomlari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni tadqiq etish natijasida, chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar asosida toponimlarning tabiiy geografik jihatlari aniqlangan;

to‘plangan geografik joy nomlarini xususiyatlari bo‘yicha guruhlashtirilgan;

viloyatda mavjud tabiiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan joy nomlarini nomlanish qonuniyatlari aniqlangan;

viloyat toponimlarini ArcGIS dasturlari yordamida 1:800000 masshtabli gidronim kartasi yaratilgan;

Samarqand viloyatining tabiiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan (oronim, gidronim, fitotoponim va zootoponim) toponimlarini muhofaza qilish, saqlash va kelgusi avlodga yetkazish uchun ilmiy asoslangan (GNIS) geografik nomlarning axborot tizimidan foydalanib elektron toponimik katalog yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda Samarqand viloyati va uning tarkibidagi ma’muriy-hududiy birliklari tuman hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan joy nomlari ro‘yxatlari, tarixiy va arxiv materiallari, Samarqand viloyatining barcha tumanlarida olib borilgan dala tadqiqotlariva mahalliy informatorlar bilan suhbatlar, ilmiy adabiyotlar, topografik

xaritalar, gyeografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma'lumotlaridan foydalanilganligi, Zarafshon irrigasiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlaridan, shuningdek, tadqiqot doirasida yaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalar, xaritalar, ilmiy taklif vatavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geografik nomlarni to'plash, ularning hududiy tarqalish va nomlanish qonuniyatlarini aniqlash, toponimik kartalar hamda Samarqand viloyati geografik joy nomlarini elektron bazasini yaratishda qo'llanilgan metodologik yondashuvlardan kelajakda boshqa hududlar toponimiyasini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan Samarqand viloyati joy nomlarini muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek, geografik nomlarning tabiiy geografik jihatidan tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari va uslublari belgilashda, ta'lim tizimida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyati joy nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

Samarqand viloyati hududi bo'yicha to'plangan joy nomlarining geografik xususiyatlari bo'yicha ajratilgan kompleks guruh va turlaridan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi amaliyotida joy nomlarini reyestrini qayta tekshirish hamda ularni muvofiqlashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 12 dekabrda 03-03-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat hududidagi mavjud aholi manzilgohlari reyestrini takomillashtirish imkonini yaratilgan;

Samarqand viloyatidagi o'ziga xos tabiiy geografik jarayonlar ta'sirida shakllangan geografik joy nomlarining mazmun mohiyatiga oid olingan ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 12 dekabrda 03-03-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy geografik jarayonlar ta'sirida shakllangan joy nomlari mazmun-mohiyatini keng ochib berish imkonini bergan;

geografik joy nomlarining Samarqand viloyati bo'yicha toponimik katalogini yaratishning algoritmidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 12 dekabrda 03-03-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublikamizning boshqa viloyatlarida ham toponimik katolog yaratishning shunday algoritmini qo'llash mumkinligi asoslangan;

geografik obyekt nomlarining geografik joylashuvi va etimologiyasi bo'yicha Samarqand viloyati veb texnologiyalarga asoslangan toponimik katalogi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

huzuridagi kadastr agentligining 2022 yil 12 dekabrda 03-03-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu katalog asosida joy nomlarining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar bazasini kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvoryo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Samarqand viloyati joy nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, geografik joy nomlarini tadqiq qilishning nazariy asoslari va rivojlanish tarixi, ularni tadqiq etish tamoyillari va metodlar, geografik joy nomlarni tasniflash va guruhlashtirish masalalariga e'tibor berildi.

Samarqand viloyati joy nomlarini o'rganishning tajribalari, xususan, E.M.Murzayev, V.A.Juchkevich, A.V.Superanskaya, V.A.Nikonov va boshqa xorijiy olimlarning metodologiyalari asos qilib olingan. Olimlar tomonidan toponimik materiallarga uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, natijada toponimlarga turli yondashuvlar, turli tasniflar mavjudligiga olib keldi. Tadqiqotning hozirgi bosqichida toponimik birliklarni tasniflash muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda toponimlarni tasniflash muammosining murakkabligi ushbu muammoni hal qilishda yagona yondashuvning yo'qligi bilan izohlanadi, chunki toponimlarning lingvistik jihatlaridan tashqari geografik jihatdan ham ko'rib chiqiladi. Toponimlarni nomlangan obyektlar turiga ko'ra tasniflash butun dunyoda izchillik va bir xillik bilan tavsiflanadi.

Muayyan hududning har qanday geografik nomlarini o'rganish uchun toponimik tizimi tashkil qilingan. Toponimikaning ko'p qirraliligi o'rganilayotgan obyekttni tasniflashning turli tamoyillariga murojaat qilishni talab qiladi. *Birinchi tamoyil* geografik joy nomlarining strukturaviy va lingvistik xususiyatlariga

asoslansa, *ikkinchi tamoyil* lingvistik bo'lmagan voqelikni hisobga oladi.

A.V. Superanskaya (1967) geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda lingvistik bo'lmagan tizimlashtirish toponim nominasiyasiga oronim, gidronim, oykonim, dromonim va boshqa shunga o'xshash toponimlarni geografik obyektlari bo'yicha tasniflarni ajratgan. Uning toponimik tasnifi quydagilarni o'z ichiga oladi: *a)* tabiiy geografik obyektlarning nomlari; *b)* inson tomonidan yaratilgan obyektlarning nomlari.

Geografik nomlar nomlangan obyekt turiga (okean, shahar, rel'yef shakli va hokazo) qarab farqlanadi va ularning o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlarini semantik tasniflari ham mavjud. Bularni tabiiy geografik obyektlarning toponimik tasniflariga kiritish mumkin.

Toponimikada yana landshaftning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlar ham mavjud bo'lib, ularning toponimik denotatiga quyidagilar kiradi: tog', tepalik, tepa, jarlik, buloq, chuqur, vodiya, qirg'oq, daryo, ko'l, o'tloq, qumli, gilli, toshloq va hokazolar.

Dissertatsiyaning «Samarqand viloyati geografik joy nomlarini tabiiy xususiyatlari tavsifi bilan bog'liq guruhlar» deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyati joy nomlarini tasniflash, suv obyekti bilan bog'liq nomlar – gidronimlar, joyning rel'yefi bilan bog'liq nomlar – oronimlar haqida ma'lumot beruvchi nomlar tahlil qilindi.

Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar tasnifiga quydagilarni kiritdik. Bular: joyning tabiiy geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan toponimlar; joyning relyef xususiyatlari aks etgan toponimlar; suv obyekti va suvning xususiyatiga ko'ra nomlangan toponimlar; Joyning iqlimi va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar; geologik tuzilishi va foydali qazilmalari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar; o'simlik nomi bilan bog'liq nomlar, hayvonlar nomi bilan bog'liq nomlar – zootoponimlar; tuproqning xususiyatiga ko'ra paydo bo'lgan toponimlardir.

Joyning tabiiy geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan toponimlar turga mansub nomlar o'zining joylashgan geografik o'rnini o'z nomi bilan bildirib turadi. Viloyatda bu turga mansub, mavjud toponimlarni Miyonqol (Oqdaryo, Ishtixon tumanlari), Sarchashma (qishloq Jomboy t.) O'rtatepa (do'nglik Jomboy t.), Mingchuqursoy (jar Payariq t.), O'rtabo'z (qishloq Payariq t.), O'rtato'sin (qishloq Payariq t.), O'rtabel (cho'qqi Nurobod t.), Jarboshi (qishloq Paxtachi t., Payariq t.), Boshquduq (qishloq Nurobod t.), Kanalyoqa (qishloq Pstdarg'om t.), Ko'prikboshi (qishloq Narpay t.) Jarosti (qishloq Ishtixon t.), Barzuva (qishloq Ishtixon t.) misol tariqasida keltiramiz.

Joyning relyef xususiyatlari aks etgan toponimlarga Ayriqoya (tog' Urgut t.), Jartepa (qishloq Urgut t.), Bobotepa (qishloq Jomboy t.), Langartepa (qishloq Narpay t.), Mingchuqursoy (jar Payariq t.), Jartepa (qishloq Urgut t.), Do'lta (qishloq Tayloq t.) Govband (qishloq Ishtixon t.), Tallak (qishloq Ishtixon t.), Tollikdara, Chapdara (dara Urgut t.), Kaltaqir (qir Ishtixon t.), Novqir (qir Urgut t.), Aldarozsoy (jar Qo'shrabot t.).

Suv obyekti va suvning xususiyatiga ko'ra nomlangan toponimlar viloyat

toponimiyasida salmog'i ko'pligi bilan ajralib turadi. Gidrotoponimlarga Andaq (qishloq Urgut t.), Anhor (qishloq Pastdarg'om t.), Boshquduq (qishloq Nurobod t.), Yonariq (qishloq Narpay t.), Sariko'l (qishloq Nurobod, Pastdarg'om t.), Siyob (Samarqand sh.), Sovuqbuloq (qishloq Kattaqo'rg'on, Qo'shrabod t.) Totlibuloq (Kattaqo'rg'on t.), Jen (qishloq Oqdaryo t.), Achchisoy (qishloq Pastdarg'om t.).

Viloyatda joyning iqlimi va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar ham mavjud bo'lib, bu kabi nomlar iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar vujudga kelishi uchun kishilar tomonidan meteorologik kuzatuvlar uzoq va davomli bo'lishi yoki ular barqaror xodisa ekanligi sabab bo'ladi. Ushbu turdagi nomlar viloyat toponimiyasida kam uchraydi. Ularga Shamoltinmas (tog' Urgut t.), Jilibuloq (qishloq Qo'shrabot t.), Shamolli (qishloq Ishtixon t.), Dovul (qishloq Pastdarg'om t.), Bahor (qishloq Pastdarg'om t.), Bog'ishamol (qishloq Samarqand, Urgut t.), Burchak (qishloq Pastdarg'om t.).

Geologik tuzilishi va foydali qazilmalari bilan bog'liq bo'lgan toponimlarga viloyati hududining geologik tuzilishini hamda, ma'lum bir turdagi minerallar va tog' jinslarining mavjudligini anglatuvchi nomlarga Oltinsoy (qishloq Oqdaryo t.), Zardbuloq (buloq Urgut t.), Konigil (qishloq Samarqand sh.), Lakkon (mah. Urgut t.), Kumushkent (qishloq Oqdaryo t.) kabi joylarni kiritish mumkin.

O'simlik nomi bilan bog'liq joy nomlariga Zirabuloq (tog' Narpay t.), Olchali (tog' Urgut t.), Xurmotog' (Toyloq t.), Chortut (qish. Pastdarg'om t.), Daraytut (dara Nurobod t.), Kavarsoy (qishloq Samarqand sh.), Qovunchi (qishloq Qo'shrabot t.), Terak (qishloq Urgut t.), Yakkatutsoy (qishloq Urgut t.), Bodomcholi (qishloq Qo'shrabot t.), G'ujumsoy (soy Qo'shrabot t.), Jiydali (qishloq Nurobod t.), Gulzor (qishloq Pastdarg'om t.), Badal (qishloq Samarqand t.) kabi joy nomlari kiritiladi.

Hayvonlar nomi bilan bog'liq nomlar-zootoponimlarga viloyat hududidagi bu turdagi nomlar uchta guruhga ajratildi: a) uy hayvonlari nomi asosida paydo bo'lgan zootoponimlar: Govxonasoy (soy Bulung'ur t.), Tuyatortar (kanal Bulung'ur t.), Ito'ldi (qishloq Jomboy t.), Govbuloq (botiq Qo'shrabot t.), Biya (qishloq Paxtachi t.), Jilqixaydar (qishloq Kattaqo'rg'on t.), Tuyabovur (qishloq Ishixon t.).


b) yovvoyi hayvonlar nomi asosida yaratilgan zootoponimlar: Ayg'irtepa (Jomboy t.), To'rtayg'ir (qishloq Oqdaryo t.), Ilonsoy (dovon Samarqand t.), Tulkiboy (tog' Kattaqo'rg'on t.), Bo'ri (qishloq Payariq t.), Xirsxona (qishloq Urgut t.), Shoxolxona (qishloq Oqdaryo t.), Alqortepa (tepa Bulung'ur t.), Ilonli (qishloq Urgut, Narpay t.).

v) qush va parrandalar nomi asosida yaratilgan zootoponimlar. Ko'kqarg'a (qishloq Narpay t.), Kaptarxona (Samarqand t.), Chumchuqli (qishloq Samarqand t., Urgut t.) Qarchig'ay (qishloq Narpay t.), Bedana (qishloq Bulung'ur t.).

Tuproqning xususiyatiga ko'ra paydo bo'lgan toponimlar. Bo'zi (Samarqand t.), Burloq (Jomboy t.), Bo'zg'ovul (Payariq t.), Loyqa (qishloq Bulung'ur t.), Jalatir (qishloq Qo'shrabot t.), Musoqoq (qishloq Nurobod t.), Tallizig'ir (qishloq Ishtixon t.), Sho'r (qishloq Kattaqo'rg'on t.), Sho'rtepa (qishloq Payariq t.), Qoq (qishloq Pastdarg'om t.)

Geografik nomlar ichida gidronimlar kundalik hayotimizning ajralmas qismi

bo'lib, ular o'z o'rnida madaniy meros hamda ma'naviy yodgorliklar sirasiga kiradi. Chunki gidronimlarni tadqiq qilish, xalqning tarixi, buguni va kelajagi, hududning landshafti, qazilma boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida yetarlicha ma'lumot beribgina qolmay, kelajakda irrigasiya va gidrologik inshootlarni rivojiga hamda taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Samarqand viloyati toponimlari tarkibida gidronimlarning 271 tasi tadqiq qilingan (1-rasm). Viloyatda gidrologik obyektlarni nomlash, obyektning joylashgan o'rni, rel'yefi bilan bog'liq bo'lib, tog'li xududlarda soy, buloq, chashma, cho'l hududlarida esa quduq, qoq, suv kabi gidronimik terminlar faol qo'llanilgan (2-rasm).




1-rasm. Samarqand viloyati gidronimlarini semantik tasnifiga ko'ra bo'linishi.

Jumladan, Sobirsoy (soy Nurobod t.), Axchabsoy (soy Qo'shrabot t.), To'sinsoy (soy Ishtixon t.), Sarisuv (kollektor Payariq t.), Qorasuv (ariq Ishtixon, Payariq Toyloq t.), Alibuloq (buloq Payariq t.), Sovuqbuloq (buloq Nurobod t.), Beshquduq (quduq Paxtachi t.), Uzunquduq (quduq Nurobod t.), Qoqchorbog' (ariq Oqdaryo t.) va hokozolarni kiritish mumkin.

Joyning rel'yefi bilan bog'liq nomlar – oronimlar faqatgina tog'lar va tepaliklar emas, balki jarliklar, vodiylar, pasttekisliklar, daralar, qumliklar va boshqa orografik obyektlar nomlaridir, "Oronim (yunocha oros-tog', onoma-nom, ism) demakdir.

Samarqand viloyati oronimlari guruhiga quyidagi obyektlarning nomlari kiradi:



2-rasm. Samarqand viloyatining gidronimlar karta-sxemasi

LEGENDA

№	<u>Kanallar</u>				
1	Kattatoyloq	24	Yangiariq	21	Nakrut
2	Oqtepa	25	Bog'izag'on	22	Oqsoy
3	Tuyatortar	26	Darg'om aylanma	23	Oqtepasoy
4	Bulung'ur		<u>Soylar</u>	24	Omonqo'tonsoy
5	Mirza	1	Ayriqiyasoy	25	Sag'anaq
6	Yangiariq	2	Angaron	26	Sazag'onsoy
7	Obolin	3	Axchob	27	Sobirsoy
8	Qorasuv	4	Bitovsoy	28	To'sunsoy
9	Miyonqol – Xatirchi	5	G'arbiy Quduqsoy	29	Sharavatsoy
10	Kirish kanal	6	Go'rxona	30	Egriko'lsay
11	Qaytaruvchi kanal	7	G'o'ssoy	31	Choshtepa
12	Toss	8	Jizmonsoy	32	Tangisoy
13	Narpay	9	Jom	33	Chitirli
14	Qozoqariq	10	Jonbuloq		<u>Buloqlar</u>
15	Qarnob	11	Zarmitan	1	Ajdarbuloq
16	Qiyot	12	Ilonsoy	2	Alibuloq
17	Yangiqo'rg'on	13	Ingichka	3	Vallalen
18	Shaxob	14	Kattavut	4	Gardon
19	Payariq	15	Kattasoy	5	Kampiro'ldibuloq
20	Xonchorvoq	16	Kattasoy	6	Qayrag'och
21	Eski Anhor	17	Ingichkasoy	7	Quduqcha
22	Qorag'uppa	18	Qadamjoy	8	Sassiq
23	Qasaba	19	Qoratoshsoy	9	Tolliq
		20	Mironko'lsay	10	Chorvoqbo'g'ota

Adir – Qirqovul (Qo'shrabot tumani), Egriqul (Urgut tumani), Kichikqiz (Ishtixon tumani), Qirqovul (Qo'shrabot tumani), Qoraqiya (Kattaqo'rg'on

tumani), Qo'shag'och (Qo'shrabot tumani), Ovg'aoshuv (Urgut tumani), Poyontepa (Qo'shrabot tumani).

Davon- Ayribel (Nurobod tumani), Qumbelsoy (Urgut tumani), Tiqchabel (Qo'shrabot tumani), O'rtabel (Nurobod va Samarqand tumanlarida), Olmalik (Nurobod tumani), Taxtaqoracha (Urgut tumani), Taqilon (Qo'shrabot tumani), Qumg'aza (Nurobod tumani).

Tog' nomlari- Bo'g'chaqo'rg'ontog' (Urgut tumani Boyqishloq qishlog'i), Gardantog' (Urgut tumani Kamangaron Qishlog'i), Yettiqiztog' (Urgut tumani), Zinaktog' (Urgut tumani Yonoy qishlog'i), Murtog' (Payariq tumani), Oynaqirtog' (Urgut tumani Boy qishloq), Oyto'lditog' (Urgut tumani Ayriqoya qishlog'i), Suvombortog'i (Urgut tumani), Teshiktog' (Ishtixon tumani).

Qoyalar nomi - Ayriqoya (Urgut tumani), Belbog'liqoya (Urgut tumani), Qizilqoya (Urgut tumani).

Tosh nomlari - Ajdartosh (Qo'shrabot tumani Qizilbel qishlog'i), O'zaktosh, G'ildiraktosh Dalatoshi, Darvozatosh, Yomontosh, Qayroqtosh, Kelinchaktosh, Oytosh (Urgut tumani Ayriqoya qishlog'i), G'o'ratosh (Nurobod tumani), Odamtosh (Ishtixon tumani Do'stlik qishlog'i).

Cho'qqi - Bobomurod cho'qqi, Zinon, Islom, Oqcho'qqi, Sattor, Toshtemir, Eshqul (Urgut tumani), Zardoli cho'qqi (Qo'shrabot tumani, Quvkalla qishlog'i), Chodir cho'qqi (Boytut qishlog'i).

Tepa nomlari - Qo'shtepa (Kattaqo'rg'on tumani), Ko'ktepa, Qirg'intepa, Qorovultepa, Qo'rg'ontepa (Qo'shrabot tumani), Semiztepa (Paxtachi tumani), Qoratepa, Avliyotepa, Boylartepa, Boylatepa, Boytepa, G'alvirtepa, Do'ngtepa, Jalpoqtepa (Urgut tumani).

Dara nomlari - Daxanalidara, Tollikdara, Chapdara (Urgut tumani), Tangidara (Ishtixon tumani).

Zov nomlari - Zovdor, Qizilzov (Urgut tumani), Qorazov (Nurobod tumani), Qo'shxona (Qo'shrabot tumani) kabi.

Gaza nomlari - Qumgaza (Nurobod tumani Qoratepa tizmasining g'arbiy qismida), Maymungaza (Urgut tumani), Tikgaza (Qo'shrabot tumani).

Supa nomlari - Supatoshtog', Payg'ambarsupa (Urgut tumani), Amirsupa (Kattaqo'rg'on tumani).

Uchma tik qoya nomlari - Laylakuchma Urgut tumani, Lakkon qishlog'i.

Qir nomlari - Kaltaqir (Ishtixon tumani), Yaltiroq (Qo'shrabot tumani), Ot o'ldi (Nurobod tumani), Novqir (Urgut tumani) kabi.

Tumshuq nomlari - O'rta tumshuq (Nurobod tumani).

Oronimlar ham o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tasniflarga ajratish mumkin (1-jadval).

Dissertatsiyaning «**Samarqand viloyati geografik joy nomlarni muhofaza qilish va kataloglashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida geografik nomlarni kataloglashtirishning an'anaviy shakllari, geografik nomlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlashning elektron usullari, geografik obyekt nomlarining tabiiy-geografik joylashuvi va etimologiyalari bo'yicha veb texnologiyalarga asoslangan toponimik katalog axborot tizimi ishlab chiqish haqida ma'lumot keltirilgan.

Geografik nomlar kelib chiqishi, yoshi, kasbi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar barcha insonlarda hamma vaqt doimiy qiziqish uyg'otib kelishi jamiyatda toponimlar bo'yicha ishonchli va dolzarb ma'lumotlarga talab ortadi.

1-jadval

Samarqand viloyati oronimlarining toponimik tasnifi

Toponimik tasnif	Oronimlar
Tashqi ko'rinishi va shakli asosida nomlangan oro-obyekt nomlari	Tog' – Ayribel, Ayriqoya, Yalpog'tog', Kattadara, Kichikqo'rg'on, cho'qqi – Toqiya, Chodircho'qqi, Tegirmontosh, tepa – Qalpoqtepa, Tandirtosh, Gumbaz
Obyektning tuproq tarkibiga bog'liq oronimlar	Tepa - Sho'rtepa, Sho'rtog', dara - Tolli
Foydali qazilmalar bilan bog'liq oronimlar	Tepa - Tillatepa
Fitooronimlar	Tog' - Archali, G'ujum, Yong'oqli, Pistali, Piyozli, Zirabuloq, tepa - Do'lana, Qayrog'ochmozor, Lolazortepa
Zoooronimlar	Tog' - Ajdartepa, Ayg'irtepa, Qarchig'ay, Laylakxona, tepa - Qarqarali, Tulkitepa, Tuyachitepa, Ho'kkiztepa, Shog'oltepa, Cho'chqabuloq
Obyektning son-sanog'i, miqdori, bilan bog'liq oronimlar	Adir - Qo'shchinor, Qirqovul, qir – Uch paxlavon, tepa – Beshtentak, Qirqqizboy
Obyektning rang, rang-tus belgisi bilan bog'liq oronimlar	Tog' - Ko'kmaydon, Qizilkamar, Qizilqal'a, Qoraqiya, Qoratorov, Oqtov, cho'qqi - Qorago'r, Oqcho'qqi, Qizilqoya, dovon – Qoraguzar, Qorasoy
Aholi yoki alohida shaxs-larning ijtimoiy mavqei, nasl-nasabiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan oronimlar	Tepa - Boboyormulla, Bo'ronxo'ja, Imomoqsaqol, Darveshtepa, Xoji, Qozi, Hoji, Mulla Boboqul, Mulla Mirzaqul, Imomtepa
Antropooronimlar	Tog' -Ashurko'l, Begmono'ldi, Bobomurodqi'oni, Zumradkampir, Ismat, Mahmudtog', Nurillobobo, cho'qqi - Bobomurodcho'qqi, Islomcho'qqi, Sattorcho'qqi, Hasancharvi
Etnooronimlar	Tog' -Chig'atoytov, qir -Turkmanqir, tepa - Naymantepa, Baxrintepa
Agiooronimlar va nekrooronimlar	Tepa - Azlartepa, Avliyomomo, Azizlar
Aholining kasb hunariga nisbat berish asosida shakllangan oronimlar	Tepa - Zargar, Qaroqchitepa, Zargartepa, Qassob


So'nggi yillarda mavzuga oid toponimik lug'atlar va ilmiy-ommabop nashrlar kam sonli nashrlar bu talabni ma'lum bir qismini qanoatlantirib kelgan. Lekin, axborotlashgan jamiyatning axborot ehtiyojlari yanada qulayroq va mobil axborot manbalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ma'lumotlar bazasining prototiplari an'anaviy qog'oz ko'rinishidan ko'proq imkoniyatlarni, ya'ni foydalanish imkoniyati, mazmuni va yangilanishi jihatidan ko'proq mobil va sig'imlidir.

Geografik obyektlar bo'yicha toponimning quyidagi bo'limlar asosida elektron toponimik kataloglar tuzish amalga oshirildi: oronimlar; gidronimlar; oykonimlar.

Axborot tizimi ilmiy-texnik ishlanma hisoblanadi. U quyidagi ta'minot

qismlaridan iborat: Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT): dasturiy ta'minot va texnik ta'minot; Ma'lumotlar bazasi: geografik obyekt nomlari bazasi; Foydalanuvchi interfeysini; Ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun uslubiy ta'minot.

Axborot tizimini loyihalashda asosiy vazifalardan biri ma'lumotlar bazasini loyihalash hisoblanadi. Elektron toponimik katalog ma'lumotlar bazasi loyihasi quyida keltirilgan 3-rasm bo'yicha amalga oshirildi.



3-rasm. Elektron toponimik katalog ma'lumotlar bazasi

Elektron toponimik katalog axborot tizimi veb texnologiyalarga asoslangan holda PHP dasturlash tilidagi Laravel fraymvorki va ma'lumotlar bazasi MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida ishlab chiqildi. Veb texnologiyalarga asoslanganligi esa, hamma uchun internet tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini beradi. Hamma foydalanish maqsadida <http://toponim.uz/> domeni olindi va ushbu domenga ishlab chiqilgan elektron toponimik katalog axborot tizimi joylashtirildi. Axborot tizimi foydalanuvchilar ko'lamini oshirish maqsadida 3 tildagi (o'zbek, rus, ingliz tilidagi) interfeysda amalga oshirildi.

Ishlab chiqilgan axborot tizimidan foydalanish uchun <http://toponim.uz/> veb manziliga kiriladi va tizim bosh sahifasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Foydalanuvchilar o'zlariga mos til interfeysini tanlash asosida tizimning til interfeysini o'zgartirish mumkin. Buning uchun tizimning yuqori qismida joylashgan **Til/O'zbek, Язык/Русский, Language/English** gipermurojaatlardan keraklisini bosish asosida amalga oshiriladi.

Axborot tizimi quyidagi menyulardan iborat:


-Bosh sahifa-axborot tizimini bosh sahifasiga o'tkazish gipermurojaati;

-Loyiha haqida:

a) **Yangiliklar**- tizimda bo'ladigan yangiliklar va o'zgarishlar haqidagi sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

b) **Maqolalar**-toponimlar bo'yicha e'lon qilingan maqolalar sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

s) **Galeriya**-geografik obyektlar bo'yicha foto va videolar sahifaga o'tkazish gipermurojaati.



4-rasm. Axborot tizimining gidronimlar katalogi sahifasi

- **Katalog:**

a) **Oykonimlar**-oykonimlar katalogini ko'rsatuvchi sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

b) **Gidronimlar**- gidronimlar katalogini ko'rsatuvchi sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

s) **Oronimlar**- oronimlar katalogini ko'rsatuvchi sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

d) **Barcha toponimlar**- oykonimlar, gidronimlar, oronimlarni birlashtirib ko'rsatuvchi katalogni ko'rsatuvchi sahifaga o'tkazish gipermurojaati.

Karta-ilmiy tadqiqotda ishlab chiqilgan oykonimlar, gidronimlar, oronimlar bo'yicha xaritalarni ko'rsatuvchi sahifaga o'tkazish gipermurojaati;

Qidiruv-toponimlar bo'yicha qidiruvni amalga oshirish sahifasiga o'tkazish gipermurojaati;

Murojaat uchun – axborot tizimi mualliflari bilan bog'lanish uchun aloqa ma'lumotlari sahifasiga o'tkazish gipermurojaati.

Katalog sahifalariga o'tish uchun **Katalog** menyusi tarkibidagi kerakli menyular tanlash orqali o'tiladi (4-rasm).

XULOSA

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga, tavsiya va takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Samarqand viloyati joy nomlari o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlariga ko'ra nomlangan. Geografik nomlarni shakllanishga tabiiy geografik komponentlar va jarayonlarning ta'sir etishi makon va zamonda o'zgarishi toponimik jihatdan asoslandi. Joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari bog'liqligi tadqiq etilayotgan toponimlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari haqida ma'lumot olish imkonini beradi;

2. Joy nomlarini tasniflari umumiy geografik xususiyatiga ko'ra guruhlangan turli geografik obyektlarni nomlaydi hamda toponimik tizimning asosini tashkil qiladi. Toponomik tizim bu hududiy xususiyatga ega bo'lib, mintaqaviy geografik voqelikni ifodalash uchun o'ziga xos lug'at tizimidir. Toponomik tasniflash va guruhlashtirish har qanday hududning joy nomlarini tartibga solishda muhimdir;

3. Joy nomlarini geografik jihatdan tadqiq qilishda hududiylik, geografik nomlarning denotatga ko'ra bo'linishi, semantik jihatlari e'tiborga olinadi. Tabiiy geografik jihatlarni aks ettiruvchi nomlarning toponimik denotatiga quyidagilar tog', tepalik, tepa, jarlik, buloq, chuqur, vodi, qirg'oq, daryo, ko'l, o'tloq, qumli, gilli, toshloq kabilar kiradi. Bular geografik obyektlarni nomlash va ularni qayta nomlash masalalarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir;

4. Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlarga quyidagi tasniflar ajratildi. Bular, a) joyning geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; b) joyning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq nomlar; v) joyning relyefiga bog'liq toponimlar; g) joyning iqlimi, meteorologik elementlariga bog'liq nomlar; d) suv bilan bog'liq nomlar-gidronimlar; ye) o'simliklar, ularning turlari bilan bog'liq nomlar; yo) hayvonlar bilan bog'liq joy nomlari; f) foydali qazilmalar bilan bog'liq hosil bo'lgan toponimlar. Ushbu tasniflar, geografik nomlarni mazmuni va mohiyatini aniqlashga imkon beradi;

5. Viloyat joy nomlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish va qat'iylashtirishga xizmat qiladigan "Samarqand viloyati gidronimlar xaritasi" yaratildi. Ushbu xaritada keltirilgan ma'lumotlar viloyatning gidrologik obyektlari haqida ma'lumot olish va joy nomlarining toponimik bazasini takomillashtirish imkonini beradi.

6. Samarqand viloyati gidronimlarining toponimik tahlili, joy nomlarini pozitivlik, nisbiy negativlik qonuniyatlari hududning gidrografiya va boshqa turdagi geografik jihatlari asosida shakllanishi va tabiiy geografik terminlarning roli asoslangan. Ushbu natijalar geografik nomlaridan foydalanishni tartibga solish, qonun hujjatlariga muvofiq ilmiy asoslangan geografik nom yaratish hamda bir xilda qo'llanilishini ta'minlash imkonini beradi.

7. So'nggi yillarda mavzuga oid toponimik lug'atlar va ilmiy-ommabop kam sonli nashrlar bu talabni ma'lum bir qismini qanoatlantirib kelgan. Lekin, axborotlashgan jamiyatning axborot ehtiyojlari yanada qulayroq va mobil axborot manbalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Elektron toponimik katalog axborot tizimi veb texnologiyalar asoslangan holda PHP dasturlash tilidagi Laravel fraymvorki va ma'lumotlar bazasi MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida ishlab chiqildi. Toponomik katalogni Veb texnologiyalarga asoslanganligi internet tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini beradi.

8. Samarqand viloyati toponimlarini milliy qadriyat sifatida asrash, muhofaza qilish, joy nomlardan foydalanishni standartlashtirish va qat'iylashtirish yuzasidan bajariladigan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot ishida berilgan taklif va tavsiyalardan viloyat geografik obyektlarini nomlash va qayta nomlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

**УЧЁНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ВАЛИЕВА ШАХНОЗА ИСЛОМОВНА

**ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТОПОНИМИИ
САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ**

11.00.01 - Физическая география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертационного исследования Доктора философии по географическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Gr214.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), а также информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Аббасов Субхон Бурхонович доктор географических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Турдимамбетов Изимбет Рахметович доктор географических наук, доцент Отакулов Позилжон Собирович доктор философии по географическим наукам
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «25» март 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15, главный корпус 105 кабинет., Тел.: (+99866) 239-16-36, факс: (+99866) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под № 28) адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15, главный корпус 105 кабинет, Тел.: (+99866) 239-16-36, факс: (+99866) 239-11-40

Автореферат диссертации разослан «10» март 2023 года.
(Реестр протокола рассылки № 2 от «4» март 2023 года)



Н.К.Комилова
Заместитель председателя Ученого совета
по присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Ученого
совета по присуждению ученых
степеней, (PhD)

А.Абдулкосимов
Председатель Научного семинара
при Ученом совете по присуждению
ученых степеней д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире особое внимание уделяется географическим названиям, их природно-географическим, экономико-социальным и культурно-историческим аспектам. В частности, группа экспертов Организации Объединенных Наций по географическим названиям (UNGEGN) разработала стратегический план на 2021-2029 годы, а также программу работ, учитывающую отражение социокультурных и ландшафтных элементов в географических названиях. В ней определены задачи "по вопросам стандартизации национальных географических названий государств и определения приоритета их действий"³. Эти задачи, требуют проведения исследований по анализу естественно-географических аспектов топонимики, присвоения наименований географическим объектам, группировки их на основе естественно-географических особенностей места.

Особое значение, придается признанию географических названий по всему миру, как важного ресурса, предоставляющего информацию об их специфических аспектах, включая их богатую историю, естественное географическое положение разных стран, природные условия, флору и фауну, природные ресурсы, горы и равнины, водные ресурсы. В связи, с этим, приоритет отдается выявлению и группированию естественно-географических особенностей топонимов, созданию национальных топонимических каталогов с целью их защиты и выявления сложных природно-экономических и социальных аспектов.

В нашей стране, проводится много мероприятий по научным исследованиям топонимов, с учетом природно-географических особенностей, правильности написания, произношения и охранных мер. В Указе Президента Республики Узбекистан УП №-5850 «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного» от 21 октября 2019 года, определены задачи «по контролю и координации деятельности по наименованию географических и иных топонимических объектов в соответствии с законодательством».⁴ В связи с этим, в частности, большое значение имеет, комплексное изучение топонимии Самаркандской области с географической точки зрения.

Данная научно исследовательская работа в определённой мере служит реализации задач определённых в Указе Президента Республики Узбекистан УП №-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», УП №-5850 от 21 октября 2019 года «Меры по коренному повышению престижа и положения узбекского языка как государственного», Постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан № 984 от 12 декабря 2019 года «Об утверждении Положения о

